

**SURUNKALI BUYRAK KASALLIGIDA GIPOAZOTEMIK DORI  
VOSITALARINING TA'SIR SAMARADORLIGINI O'RGANISH  
ORQALI DAVONI MUQOBILLASHTIRISH**

*Shamuratova N.Sh*

*Ro'zmetova O.S*

*Xusinbayev I.D*

*Atajanov Sh.Sh.*

*Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

**Muammoning dolzarbliji.** Surunkali buyrak kasalligi zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining asosiy bir tibbiy-ijtimoiy muammolaridan bo'lib kelmoqda. Sababi uning keng tarqalib borayotgani va jadal ravishda avj olib borishi pirovardida terminal buyrak yetishmovchiliga olib kelishi nisbatan qimmat buyrak o'rribosar terapiyani taqozo etmoqda. Surunkali buyrak kasalligining ayni vaqtida dunyo miqyosida tarqalishi o'rtacha 10-20% gacha tashkil etmoqda.

So'ngi yillarda o'simliklardan olingan va nojo'ya ta'siri kam bo'lgan, shu bilan birga tannarxi qimmat bo'lмаган гипоазотемик дори виситарига талаб ортиб борайотганлиги сабабли о'simliklardan olingan гипоазотемик дори виситарини solishtirma о'рганиб та'sir samaradorligini solishtirma baholash ustida ilmiy izlanishlarni olib borishni lozim topdik.

**Tadqiqot maqsadi.**

Surunkali buyrak kasalligining dializ oldi bosqichida bemorlarda kompleks davo bilan гипоазотемик даво сифатида о'simliklardan olingan xafitol va nefrotsizin дори виситалири qo'llab, samaradorligini solishtirma baholash.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Surunkali buyrak kasalligining III - IV bosqich bemorlarida azotemiya xolatining kechish xususiyatlarini o'rganish.
2. Surunkali buyrak kasalligining III - IV bosqichida bemorlarda xafitol dori vositasini qo'llab samaradorligini baholash.
3. Surunkali buyrak kasalligining III - IV bosqichida bemorlarda nefrotsizin dori vositasini samaradorligini o'rganish.
4. Olingan natijalarga asoslanib gipoazotemik davoni muqobillashtirish uchun tavsiyalar berish.

### **Tadqiqot materiali va uslublari.**

Tadqiqotda 60 nafar asosiy guruhni, 10 nafar sog'lom bemorlar nazorat guruhi sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot uchun turli genezli nefropatiyalar tufayli rivojlangan SBK bilan VKTTM nefrologiya bo'limida davolanayotgan 60 nafar bemor olindi. Etiologik jixatdan bemorlarning asosiy qismi ya'ni, 52 nafari surunkali glomerulonefrit, 8 nafari esa surunkali piyelonefrit bilan tashxislangan bemorlar. Olingan bemorlarning yoshi 19 dan 50 yoshgacha tashkil etadi. Bemorlarga Pevzner bo'yicha 7-parxez stoliga muvofiq ovqatlanish va sovuq hamda nam iqlimdan saqlanish kabi sog'lom turmush tarzi tushintirilgan.

Tadqiqot jarayonida SBK ning buzilgan patogenetik bo'g'inlariga har xil davolash tartiblarini ta'sirini o'rganish uchun bemorlar asosiy 4 guruhga ajratilgan: 1A-guruh SBK III-bosqich bo'lgan 17 nafar va 2 A - guruh SBK IV-bosqich bo'lgan 14 nafar bemorlarga an'anaviy davo; 1 B - guruh SBK III-bosqich bo'lgan 15 nafar va 2B- guruh SBK IV-bosqich bo'lgan 14 nafar bemorlarga an'anaviy davoga qo'shimcha nefrotsizin 300 mg/kun buyurildi.

**Nefrotsizin** – dori vositasi Shair o'simlididan ajratib olingan sinarozid (lyuteolin-7-O- $\beta$ -D-glyukopiranozid) flavonoididan iborat bo'lib u gipoazotemik dori vositasi sifatida qo'llaniladi. Mazkur dori vositasining substansiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida va tayyor dori shakli «Nikafarm» farmatsevtik korxonasi tomonidan ishlab chiqariladi. Sinarozid substansiyasining xom ashyosi uchun VFS 42Uz-28942016 «Ferula varia»,

substansiya uchun VFS 42Uz-2895-2016 «Sinarosid» va tayyor dori shakli uchun VFS 42Uz-2896-2016 «Nefrosizin tabletkalari 0,05 g» Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan.

Anamnestik va klinik jixatdan SBK belgilari bo‘lmagan va buyrak faoliyati buzilmagan 10 nafar shaxs o‘z hoxishiga ko‘ra nazorat guruhi sifatida olindi.

### **Bemorlar quyidagi tekshiruvlardan o’tkazildi:**

- 1.Umumklinik va bioximik laborator tahlillar.
- 2.Koptokchalar filtratsiyasi tezligini aniqlash. (CKD-EPI formulasi bo‘yicha hisoblanadi)
- 3.Buyrakni ultratovush tekshiruvi.

T  
e  
k Kreatinin konsentratsiyasini aniqlash uchun, tekshiruvdan oldin bemorlarga sjismoniy zo‘riqish qilmaslik va oqsilga boy mahsulotlarni iste’mol qilishdan bheklanish tavsiya etildi va ertalab nonushtadan oldin venoz qon olindi. Kalorometrik biuret usuli bilan umumiyl oqsil miqdori va Yaffe usuli orqali qondagi kreatinin konsentratsiyasi aniqlandi.

u - koptokchalar filtratsiyasi tezligini zardobdagi kreatinin miqdori bo‘yicha 2011 yili modifikatsiya qilingan CKD-EPI (2009) formulasi (<http://nefrosovet.ru/saytidagi> on-line hisoblagich ko‘magida) yordamida hisoblani.

BFZ – tekshirish tegishli guruh bemorlaridan birinchi kuni aminokislota eritmasini (Akumin-Nefro 1000 ml) parenteral yuborish oqsil yuklamasi orqali tekshirildi. Shuningdek mazkur sinama bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan KFT, zardobda umumiyl oqsil, albumin hamda proteinuriya kabi ko‘rsatkichlar ham nazardan chetda qolmadi. Tadqiqot guruhlaridan davolanishdan to‘qson kung‘tib yana shu sinama va tekshiruvlar qayta olindi. BFZ quyidagi formula yordamida hisoblandi:

n  **$BFZ = (KFT_2 - KFT_1) / KFT_1 \times 100\%$ ,**  
KFT1 – KFTni boshlang‘ich miqdori.

KFT2 – o‘tkazilgan oqsil yuklamasidan keyingi KFT ni miqdori.

**Bemorlarning ruhiy holati va hayot sifatini baholash.** Surunkali buyrak kasalligi bor bemorlarning ruhiy holati Spilberger-Xanin va HADS gospital shkalalari bo‘yicha so‘rovnomalar yordamida va hayot sifatini SF-36 psixodiagnostik test yordamida baholandi.

### **Natijalarini statistik taxlil qilish usullari**

Kuzatish davri tugagandan so‘ng olingan ma’lumotlar Excel muharririning statistik qayta ishlash bo‘yicha xulosa jadvallariga kiritildi. O‘rtacha arifmetik qiymat, o‘rtacha qiymatning standart xatoliklari, guruhlararo farqning ishonchligi Styudent mezoni asosida juft va juft bo‘lmagan farqlarni aniqlash uchun xisoblandi, bir nechta taqqoslashda esa Bonferroni dasturi yordamida xisoblandi. Sifat xarakteristikalari Pi kvadrat mezoni yordamida guruhlararo farqlarni hisoblash bilan guruhlarda yuzaga kelish chastotasi bo‘yicha baholandi.

Korrelyatsion tahlil Pirson korrelyatsiya koyeffitsiyenti yordamida va uning ahamiyatini ishonch jadvallari yordamida aniqlash orqali amalga oshirildi.

### **XULOSALAR**

Nefrotsizin bemorlarning dializgacha bo‘lgan davrini uzaytiradi. Bu esa o‘z navbatida bemorlarimizning ruxiyatiga eng yomon ta’sir etuvchi omil xisoblanmish o‘rinbosar terapiya va boshqa ekstrokorporal davo chora-tadbirlariga bo‘lgan talabini kamayishiga olib keladi va SBK bemorlarining ruhiy holatida ijobiy siljishni yuzaga keltiradi va xayot sifatini yaxshilanishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

SBK dializgacha bo‘lgan bosqichlarida davolashda nefrotsizinning qo‘llanilishi mochevina va kreatininni kamaytirdi, KFTni ortishiga olib keldi. Shuningdek lipid spektri ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir etib dislipidemiyani muvofiqlanishi SBKnini zo‘rayishini sekinlashtiradi.

Nefrotsizin preparati uremik intoksikatsiyani kamaytiradi, lipid sprektri ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qiladi va shuning bilan SBKnini progressivlanishini sekinlashtiradi. Bu bemorlarning dializgacha bo‘lgan davrini uzaytiradi. Bu esa o‘z navbatida bemorlarimizning ruxiyatiga eng yomon ta’sir etuvchi omil

xisoblanmish o‘rnbosar terapiya va boshqa ekstrokorporal davo chora-tadbirlariga bo‘lgan talabini kamayishiga olib keladi. Oqibatda jamiyatimizdagi SBK bemorlarining ruhiy holatida ijobiyl siljishni yuzaga keltiradi va xayot sifatini yaxshilanishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

### **Foydalanimanadabiyotlar:**

1. Мунавваров Б.А. Дислипидемия на III-IV стадиях хронической болезни почек // “Научные идеи молодых ученых” Польша, Варшава - 2020. – С.41.
2. Мунавваров Б.А. Сурункали буйрак касаллигига гипоазотемик препаратларнинг липидлар спектрига таъсири // Ўзбекистон кардиологияси журнали. Тошкент, 2020. – №2. – 57-62 бетлар (14.00.00; №10)
3. Шамуратова, Н. Ш., Рузметова, Д. А., Саттарова, Н. А., & Нуруллаев, С. Х. (2024). ЖИРОНОКИСЛОТНЫЙ СОСТАВ ЛИПИДОВ ЗЕРНОВОГО СОРГО (SORGHUM) ВИДА «КАТТА-БАШ». International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 1238-1245.
4. Zokirxodjaev, S. Y., Shamuratova, N. S., Duschanov, B. A., Ruzmetova, D. A., & Raximova, S. X. (2021). Biological and Dietary Value of Sorgo (Jugara) Grain Products by Amino Acid Composition in Certain Diseases.
5. Zokirxodjaev, Sh.Ya.; Shamuratova, N.Sh.; Duschanov, B.A.; and Xudayberganov, A.S. (2021) "FATTY ACID COMPOSITION OF GRAIN SORGHUM LIPIDS AND JUSTIFICATION OF ITS USE IN DIET THERAPY FOR CHRONIC LIVER DISEASES," Central Asian Journal of Medicine: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 7. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/tma/vol2021/iss1/7>.
6. Зокирходжаев, Ш. Я., Худойберганов, А. С., Дусчанов, Б. А., Шомуродова, Н., & Масобиров, Р. П. (2020). Обоснование применения зернового сорго (джугары) в диетотерапии при хронических заболеваниях.
7. Kalandarova G. D., Raxmonova S. A, Shamuratova N. Sh, & Davlatjonova N. M. (2023). THE LAWS OF CORRECT DIET AND THE

CONSEQUENCES OF IMPROPER DIET. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 1(8), 64–67. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/5/article/view/396>

8. KALANDAROVA, G., & SH, S. N. (2023). SORGONING SELIAKIYANI DAVOLASHDAGI SAMARASI.

9. Шомуратова, Н. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФАКТИЧЕСКОГО ПИТАНИЯ – НА ПРИМЕРЕ БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПЕЧЕНИ. Журнал гепатогастроэнтерологических исследований, 1(3), 63–65.  
<https://doi.org/10.26739.2181-1008-2020-3-15>

10. Nadira S. et al. Clinical-immunological efficiency in diethotherapy of chronic hepatitis with sorgo //Academicia Globe. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 6-11.